

yangi qirralarini yuzaga chiqarish.

Adabiyotlar tahliliga ko'ra, rahbarlik rasmiy liderlik esa norasmiy fenomen sifatida qaraladi, lekin rahbarda liderlik

sifatlarini shakllanishi boshqaruv jarayonida rahbar va xodimlar munosabatiga hamda boshqaruvning samarali bo'lishiga ijobiy ta'sir etadi.

### Adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar/ SH.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017.104-b.
2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: "O'zbekiston". 2016. 13-b.
3. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. -T.: "O'zbekiston". 1995. 22-23-b.
4. Turg'unov E. "Amaliy ijtimoiy psixologiya". -T.: 1998.
5. Zaynuddinov Sh.N., Murakayev I.U. Menejment asoslari. -Toshkent: Moliya, 2007.
6. Qosimov S.S., Mo'minov N.A. Rahbarlik qobiliyati va boshqaruv malakalari. -T.: "Prepring". 2001. 56-b.
7. Maxmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. -T.: "YUNAKS-PRINT", 2006.
8. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. -T.: "Akademika", 2006. 241-b.
9. Raximova D., Bekmurodov M. Liderlik va tashkilot madaniyati. -T.: "Akademika", 2006.

### REZYUME

Ushbu maqolada liderlik hamda boshqaruv tizimidagi amalga oshirilgan ishlar, yangi davr boshqaruv psixologiyasi boshqarish muammolari nazariy va amaliy jabhalari tahlil etilgan.

### PEZIOME

В статье анализируется проделанная работа в системе лидерства и менеджмента, теоретические и практические аспекты проблем управления в новую эру психологии управления.

### SUMMARY

This article analyzes the work done in the system of leadership and management, the theoretical and practical aspects of management problems are analysed in the new era of management psychology.

### AUTIZM: MUAMMO VA YECHIM

**N.R.Jumaniyozova** – *tayanch doktorant*

*Urganch davlat universiteti*

**Tayanch so'zlar:** oila, bolalik, sindrom, autism, adaptatsiya, inklyuziv ta'lim, psixologiya, ota-ona, diagnostika, korreksiya, kognitiv, emotsional, xulq-atvor.

**Ключевые слова:** семья, детство, синдром, аутизм, адаптация, инклюзивное образование, психология, воспитание, диагностика, коррекция, когнитивный, эмоциональный, поведенческий.

**Key word:** family, childhood, syndrome, autism, adaptation, inclusive education, psychology, parents, diagnostics, correction, cognitive, emotional, behavioral.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash asosiy maqsad qilib olingan. Shunga muvofiq bugungi kunda autism sindromli bolalarni jamiyatga moslashtirish va ularni pedagogik-psixologik qo'llab quvvatlash eng global mavzudir [1].

Erta bolalik autizmi va autizm spektrining buzilishi bo'yicha tashxis mutaxassis psixiatr tomonidan qo'yiladi. Ushbu kasallikning klinik ko'rinishlari va ularni davolash, reabilitatsiya qilishda turli yondashuvlar mavjud bo'lib bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Erta bolalik autizmi bo'lgan bolalarni dori-darmon bilan davolashdan tashqari birinchi navbatda ularga maxsus metod, shakl va usullardan foydalangan holda ta'lim berish, o'rgatish va ijtimoiy-psixologik qo'llab quvvatlash zaruriyati mavjud. Autism bolalarning o'qitish usullari ularning steriotipik va retuallashgan xatti-harakatlarini hisobga olgan holda yaratilishi kerak. Ushbu o'qitish usulining asosiy maqsadi jamiyatimizda mavjud bo'lgan qoida va turli an'analimizga mos holda bilimlarni shakllantirish va bilimlar orqali muloqot qilish qobiliyatlarini tizimli shakllantirishdan iborat. Autism sindromli bolada "Agar shunday bo'lsa, biz ham shunday qilamiz" tamoyiliga muvofiq xatti-harakatlarining moslashuvchan steriotiplarini rivojlantirishdir. Autism spektrining buzilishi bo'lgan bolalarda markaziy asab tizimi shikastlanishi darajalariga qarab biologik terapiya usullaridan foydalanish va tibbiy, psixologik va pedagogik reabilitatsiya ishlarini olib borish maqsadga muvofiqdir [2].

Bunday bolalarda davolash va ijtimoiy moslashtirish jarayonida ulardagi turli fundamental farqlar ko'zga tashlanadi. Masalan, ularda dastlabki ijtimoiy aloqalar cheklangan bo'lib, ularni asta-sekin psixologik va

pedagogik integratsiyalashuvga yo'naltirish kerak. Hozirgi kungacha Xorazm viloyatida autizm spektri buzilgan bolalar uchun tadqiqot markazlari mavjud emas. Shuning uchun bunday bolalar kasalxonalarining nevropsixologik markazlarida kuzatiladi. Sabab sifatida jamiyatda bunday tashxisli bolalar juda kamchilikni tashkil qilishi aytiladi.

Vaholanki, bugungi statistikaga e'tibor beradigan bo'lsak, dunyo aholisining 10 milliondan ortigi autizm kasalligidan aziyat chekmoqda. Bundan bir necha 10 yil oldin har 10 000 aholiga 1 (bir) nafar autizm sindromli bola to'g'ri kelgan bo'lsa ushbu ko'rsatkich hozirda autizm va autizm spektri buzilishlarining tarqalishi har 10 000 ta bolaga taxminan 20 (yigirma) nafar holatni tashkil etmoqda. Ushbu ko'rsatkichlar har yil hisobiga 11-17 foizga ko'payotganligini kuzatish mumkin. Dunyo miqyosida ushbu ko'rsatkichlarga nazar soladigan bo'lsak AQSHda tug'ilayotgan 54 nafar bolaning 10 % autizm, Xitoy, Rossiyada esa 20%, ekanligini ko'rish mumkin. 2017-yilda dunyo aholisining 50 nafar bolasiga 1 (bir) nafar autizmga chalingan bolalar qayd qilingan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2020 yilda 30 nafar odamga 1(bir) nafarni tashkil qilmoqda [4.5]

O'zbekistonda ham bunday bolalarning ko'payatganligini kuzatishimiz mumkin.

Jumladan, Xorazm viloyati misolida 2021 yilning may oyigacha 40 nafar bolaga autizm tashxisi qo'yilgan. Bu natijalar ro'yhatga olinganlar sonidir. Lekin shuni alohida aytish kerakki, ro'yhatga olinmagan autizmlarni hisobga olsak bu ko'rsatkich yanada oshishi mumkin.

Oilada psixik rivojlanishda og'ishi bo'lgan bolaning tug'ilishi odatiy hayot tarzini o'zgarishiga olib keladi. Ota-ona bola munosabatlari shakllanishida va oila bilan sotsium o'rtasidagi hamkorlikda tafovutlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani tarbiyalash va o'qitishda oila bola uchun "rivojlantiruvchi makon" sifatida tushuniladi. Mutaxassis psixiatr, psixolog, pedagoglarni fikricha, rivojlanishida buzilishi bo'lgan

bolalarni alohida toifaga, aqliy jihatdan ortda qolish autizm deb belgilash maqsadga muvofiq keladi. V.M.Bashina, N.V.Simashkova, E.Mesh, D.Volf, O.S.Nikolskaya tadqiqotlarida autizm va autizm kasalligini tarqalishi dunyo aholisining 10 000 tasiga 20 nafar to'g'ri kelishi ta'kidlab o'tilgan [5].

K.Gilbert, E.S.Ivanov, T.Pitere, P.Ferrarilar tadqiqotlarida autizm bolalarda psixik buzilishlarning ayrim nuqsonlari kuzatilishi aytib o'tilgan. L.Wingning tadqiqotlariga ko'ra autizm tashxisli bolaning harakatlaridagi noaniqliklarni "buzilishlar triadasi" deb atagan. "Buzilishlar triadasi"ga ijtimoiy o'zaro ta'sir, shaxslararo muloqatning yo'qligi, xatti-harakatli stereotiplar ko'rinishida namoyon bo'lishini va bolaning hayoti davomida, jumladan 3 yoshidan boshlab aniq ko'rina boshlashini ko'rishimiz mumkin [6].

Olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari va tahlillar mamlakatimizda autizm kasalligi bo'yicha quyidagi muammolar mavjud ekanligini ko'rsatmoqda:

1. Autizmga chalingan bolalar, yaqin atrofdagilarning g'amxo'rlik munosabatiga va ularning doimiy yordamiga muhtojdirlar. Emotsional soha buzilishining murakkab kombinatsiyasi, muloqotga bo'lgan ehtiyojning pasayishi va kognitiv qobiliyatlarning yetishmasligi kabi xususiyatlar emotsional identifikatsiya qilish jarayonlarini o'zgartiradi.

2. Bolaning giperaktivligi diagnostika, tuzatish, rivojlantirish ishlari bolalar va ota-onalarning o'zaro aloqalari jarayonida sezilarli qiyinchiliklar tug'diradi.

3. Ota-onalar bunday bolalarni tashqi dunyo bilan muloqotida asosiy vositachilar bo'lib, ularni aqliy rivojlanishi to'g'risidagi ma'lumotlarning yetishmasligi bunday bolalarning iqtidorini aniqlash va rag'batlantirishda qiyinchilik keltirib chiqaradi.

4. Bolaning g'ayrioddiy xatti-harakatlari, e'tiborni jalb qilishi va bu holatni boshqalar tomonidan qabul qilinmasligi ota-onalarda kuchli stress holatlarini keltirib chiqaradi.

5. Bundan tashqari autizmga chalingan bolalarning individual psixologik xususiyatlarini ko'pincha ularni ta'lim-tarbiya muassasalariga moslashishini murakkablashtiradi.

6. Bunday holda, uйда ta'lim masalasi ota-onalar uchun dolzarb bo'lib qoladi, bu esa bolalarning ijtimoiylashuviga to'sqinlik qiladi, shuningdek ota-onalarning kasbiy va shaxsiy sohadagi imkoniyatlarini cheklaydi.

7. Autizmga chalingan bolalar ota-onasini o'z farzandiga bo'lgan munosabatini o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

8. Oila a'zolarining hissiy va shaxsiy rivojlanishi va muvaffaqiyatli ijtimoiy adaptatsiya uchun maqbul tavsiyalarni berish zarurdir. Biroq, ushbu mavzu bo'yicha amaliy ishlar O'zbekistonda ilmiy tadqiq qilinmagan, adabiyotlarda yetarli darajada yoritilmagan, bu esa qo'shimcha tadqiqot olib borish ehtiyojini keltirib chiqaradi.

Yuqoridagi muammolarni o'rganish va ularga yordam berishni tashkil qilish bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir. Shu maqsadda quyida olib borayotgan ilmiy-tadqiqot ishimiz doirasidagi ayrim taklif va vazifalarni bajarish maqsadga muvofiqdir.

- Autizm sindromli bolalar ota-onalariga psixologik yordam ko'rsatish tizimi ma'lumotlar bazasini va platformasi ishlab chiqish va ushbu platformada autizm

sindromli bolalar ota-onalariga psixologik yordam ko'rsatish tizimiga doir ma'lumotlar bazasini yaratish. Ushbu ma'lumotlar bazasi asosida veb sayt va uning mobil ilovasi ishlab chiqish

- Platformada (mobil ilova va veb sayt tizimida) autizm sindromli bolalarning ota-onalari uchun ularning o'zaro munosabatlarini aniqlashga yordam beruvchi so'rovnoma o'tkazish funksiyasini yaratish;

- Autizm sindromli bolalar va ularning ota-onalari o'rtasidagi munosabatlarni tavsiflovchi ma'lumotlar bazasini shakllantirish va ilmiy tadqiqotlarda mazkur ma'lumotlardan foydalanishni yo'lga qo'yish;

- Autizm sindromli bolalar ota-onalariga o'z farzandlari bilan olib boriladigan psixologik mashg'ulotlar bo'yicha bilimlari shakllantirish

- Autizm sindromli bolalar ota-onalariga farzandlari bilan olib boriladigan psixologik (psixokorreksion) mashg'ulotlar bo'yicha mavzulashirilgan video, audio va matnli qo'llanmalarni ishlab chiqish va tizimli ravishda veb sayt va mobil ilovaga joylashtirib borish;

- O'zaro munosabatlarni aniqlashga yordam beruvchi so'rovnoma natijalari ma'lumotlari asosida individual tarzda psixologik qo'llanmalar taklif qilish orqali ota-onalarning kognitiv, emotsional, va hulq atvoridagi o'zgarishlarni bolaning holati bilan uyg'unlashtirishga erishiladi.

Bu orqali ota-onalarining autizm kasalligi bo'yicha bilimlari oshiriladi, emotsional va ruhiy holatlarini muvozanatlashtiriladi, xulq-atvori farzandi tarbiyasiga to'g'ri yo'naltiriladi. Ota-onalardagi kuchli stress holatlarini bartaraf qilish uchun psixokorreksion dastur ishlab chiqilib, psixologik yordam ko'rsatishga xizmat qiladi. Ushbu dastur respublikamizning barcha viloyatlaridagi autizm kasalligidan aziyat chekayotgan bolalarning ota-onalari uchun elektron o'quv qo'llanma sifatida samarali ishlaydi.

Bugungi kunda jahon amaliyotida autizm kasalligi va uning oqibatlari bo'yicha ko'plagan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Jahon amaliyotining tadqiqotlarini o'rganish jarayonida ulardagi ta'lim tizimi va tarbiya shakllarining o'zbek mentalitetiga xos bo'lmagan jihatlarini ko'rishimiz mumkin.

- autizm sindromli bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o'rtasida ijobiy - ijtimoiy muhit shakllantiriladi;

- inklyuziv ta'lim jarayonida autizm sindromli bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog'lom va baquvvat shakllanishiga qaratilgan choralarni amalga oshirish uchun samarali ta'sir ko'rsatadi;

- autizm sindromli bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo'lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi;

- millatimiz mentalitetiga mos tarbiya turlarini autizm sindromli bolalarning oilalari uchun singdirishga xizmat qiladi;

- psixodiagnostik metodlarni o'zbek tilida modifikatsiya qilingan va validlik darajasiga mos so'rovnomalarni joriy etiladi;

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, ota-onalarimizda avvalo autizm kasalligi bo'yicha bilimlar yetarli bo'lsa va mutaxassislar bilan hamkorlikda ijtimoiy-psixologik jihatdan to'g'ri yo'naltirilsa, bolaning jamiyatga integratsiyasi ancha samarali kechgan bo'lar edi.

#### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konspeksiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmoni. 2019.
2. Аппе Ф. Введение в психологическую теорию аутизма. Пер. с англ. Ермолаева Д.В. -М.: «Теревинф», 2006, -С. 216.
3. Башина В.М. Аутизм в детстве. - М.: «Медицина». 1999. -С. 236.
4. Башина В.М., Симашкова Н.В. Современные подходы к проблеме детского и атипичного аутизма. // Конгресс по детской психиатрии. - М.: РОСИНЭКС. 2001. -С. 28-32.
5. Мэш Э., Вольф Д. Детская патопсихология. Нарушения психики ребенка. - М.: АСТ; СПб.: Прайм-ЕВРОЗНАК, 2007. - С. 511.
6. Никольская О.С., Баенская Е.Р., Либлинг М.М. Аутичный ребёнок. Пути помощи. Изд. 3-е, стер. - М.: «Теревинф», 2005.

**REZYUME**

Autizm sindromli bolalarning jamiyatga integrasiyasini ta'minlash va ularning ta'lim tarbiyasini tashkillashtirish bugungi kunning muhim masalaridan biridir. Mazkur maqolada autizm sindromli bolalar va ularning ota-onalari bilan olib boriladigan jarayonlarning psixologik-pedagogik asoslari tahlil qilingan.

**РЕЗЮМЕ**

Обеспечение интеграции детей с аутизмом в общество и организация их обучения – один из важнейших вопросов на сегодняшний день. В данной статье анализируются психолого-педагогические основы процессов, проводимых с детьми с аутизмом и их родителями.

**SUMMARY**

Ensuring the integration of children with autism into society and organizing their education is one of the most important issues today. This article analyses the psychological and pedagogical basis of the processes carried out with children with autism and their parents.

**DEVIAANT BEHAVIOR AS A SOCIAL, PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL PROBLEM**

**U.A.Kalillayeva** – assistant teacher

*Nukus state pedagogical institute named after Ajiniyaz*

**Tayanch so'zlar:** deviant xulq, o'smirlar, bolalar, agressiya, jinoiy xarakter.

**Ключевые слова:** девиантное поведение, подростки, дети, агрессивный, преступление характер.

**Key words:** deviant behavior, adolescents, children, aggressiveness, criminal behavior character.

**Introduction:** Deviant behavior is “a complex phenomenon and is studied within several scientific disciplines: sociology, criminology, psychiatry, psychology, pedagogy and others. In psychology, deviant behavior is considered as a phenomenon that characterizes a person” [1:245]. As a rule, these types of deviant behavior differ, such as “aggressiveness, sadism, tendency to steal, deceive and vagrancy, anxiety, loneliness, depression, auto-aggression (suicidal behavior), hyperactivity, victimization, stress, phobias, jealousy, hyper- and hypoactivity, eating disorders, sexual behavior abnormalities, addictions, behavioral rituals, obsessive thoughts and motor habits, etc” [2:11].

Deviant behavior is "behavior that deviates from the norms and standards adopted by society: legal, moral, age, ethnic, etc" [3:19].

E.V.Zmanovskaya identifies such specific features of deviant behavior as: violation of not any, but the most important for a given society and at this time, norms [3].

**Methods:** Today, during a period of various socio-economic changes, as well as the outbreak of a pandemic, many adults have found themselves “Thrown out” of the usual social life, which, of course, cannot but affect the formation of the deviant behavior of the younger generation. At the same time, manifestations of deviant behavior are increasingly associated with aggressive characteristics. In addition, the deviant behavior of children and adolescents is expressed in alienation from various social institutions - family, school, etc. Children and adolescents cease to feel support from these institutions, and more and more show their deviance, which continues to grow.

Consequently, the problem of the formation and development of deviant behavior in children and adolescents has recently been widely considered both in pedagogical and socio-psychological research. Depending on the direction, the authors try to form a single concept, classification of types and types of deviant behavior, to determine the mechanisms of determination and functioning of deviant behavior for the selection and implementation of pedagogical and socio-psychological methods of prevention and intervention. The research analyzes deviations as a socio-pedagogical problem: their preconditions and causes, the typology of deviations, reveals the reasons for deviations from the mental norm and character accentuation, as well as the socio-psychological conditions of personality development disorders in children and adolescents. But constantly changing conditions do not allow to form a unified view of

the nature of deviant behavior.

Thus, deviant behavior appears as a normal reaction to the social or microsocial conditions in which they find themselves abnormal for a child or a group of adolescents, and at the same time as a language of communication with society, when other socially acceptable methods of communication have exhausted themselves or are inaccessible.

There are many different theories and concepts that try to explain the causes of deviant behavior, while most of these approaches consider the mental processes of the individual to be the basis of deviant behavior. Among the most famous approaches, in line with which deviant behavior is considered, one can name psychoanalytic theory, personality theory and social learning theory. At the same time, considering deviant behavior, the initial prerequisite for its occurrence is focused on various factors. So psychoanalytic theory and its followers consider deviant behavior through the prism of integrative relationships between unconscious and conscious processes.

Deviation (deviance) is a stable personality behavior that deviates from the generally accepted, most widespread and well-established social norms. We can say that this is the border between norm and pathology, an extreme version of the norm of behavior, leading to problems of an asocial nature.

There are the following stages in the development of antisocial behavior:

- disapproved behavior (episodic pranks, mischief);
- condemned behavior (associated with more systematic condemnation on the part of caregivers);
- deviant behavior (morally negative manifestations and actions);
- delinquent (pre-crime) behavior;
- criminal behavior;
- destructive behavior.

Deviant behavior is complex in nature and is due to a variety of interacting factors. Among them, the most important are:

Biological factors are unfavorable physiological or anatomical features of the child's body (mental development disorders, hearing and visual defects, damage to the nervous system, bodily defects, speech defects, etc.)

Psychological factors are psychopathologies or character accentuations. These deviations are expressed in neuropsychiatric diseases, psychopathy, neurasthenia, borderline states that increase the excitability of the nervous system